

Anjuman qatnashchisi talabnomasi:

- 1. Familiya, ism, sharifi** – *Shomurodova Sitora Xoshim qizi.*
- 2. Ilmiy darajasi va unvoni** – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),*
- 3. Ish joyi, lavozimi** – *Xalqaro Nordik universiteti dotsenti*
- 4. Maqolaning nomi** – *Yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda badiiy adabiyotning o'рни*
- 5. Qaysi sho'bagaga tegishli** – 4
- 6. Telefon raqami** – *Tel.: (97) 9182092*

**YOSH AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYA
QILISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI**

*Shomurodova Sitora Xoshim qizi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
Xalqaro Nordik universiteti dotsenti,
RMMM huzuridagi Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar
institutida tashkil etilgan "Yoshlarni turli mafkuraviy
xurujlardan himoya qilish va ma'naviy-axloqiy
tarbiyalash bo'yicha o'quv va ilmiy-metodik qo'llanmalar,
uslubiy tavsiya, ma'rifiy adabiyot va
media mahsulotlar majmuasini yaratish"
granti doirasida katta ilmiy xodim.*

Tel.: 97 918 20 92

Bugungi shiddati tez zamonda insoniyat axborotlar oqimi orasida yashamoqda. Smartfonlar, kompyuterlar, televizorlar cheksiz ma'lumot tashuvchilari bo'lib, odamlar hozir ertalab ko'zlarini ochganda gazeta emas, telefoniga kelgan yangiliklarni o'qishmoqda. Bu, albatta, taraqqiyotning yuksalganidan dalolatdir. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Bizgacha yetib kelayotgan axborotlar orasida foydali yoki zararlisi, kerak yoki keraksizi, bunyodkor yoki vayronkor g'oyalarga xizmat qiluvchisi bor. Yosh avlod esa bu

axborotlarni saralash qobiliyatiga ega emas. Shu sababli yosh avlodni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish uchun, avvalo, ularda axborotlarni saralay olish qobiliyatini shakllantirish lozimdir.

Axborot o'zi nima? Axborot arabcha "xabar" so'zidan olingan bo'lib, "darak", "ma'lumot", "ovoza" degan ma'nolarni anglatadi[2]. Shu jumladan, axborot deganda biror kimsa, narsa yoki hodisa haqida darak, ma'lumot berish, bildirish, uni muayyan vositalar yordamida yetkazish yoki ovoza qilish tushuniladi[3]. Axborot orqali insonlarning ongini, mafkurasini o'zgartirish mumkin. Axborot orqali insonlarning dunyoqarashini boshqarish mumkinligi bugungi kunda yaqqol ayon bo'lmoqda. Dunyoni axborot boshqaradi degan gap haqiqatga aylanib bormoqda. Axborotga egalik qilish va uni yetkazish talabga aylanib borayotgan bir pallada axborot maydoni tobora kengayib bormoqda. Axborot turlari ortib borishi natijasida axborotning ko'rinishlari ham tubdan o'zgarimoqda. Axborot tarqatish manbai sifatida foydalaniladigan internet tizimi turli xil tasdiqlangan va tasdiqlanmagan axborotlar bilan to'la. Aynan bu vaziyatda axborot qabul qiluvchilarda axborot olish madaniyati va tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Buning uchun jamiyat axborotlashgan bo'lishi talab etiladi.

"Bugungi kunda dunyoning taqdiri yadro jomadonidagi tugmachani emas, mikrofon tugmachasini bosish bilan hal etiladigan bo'lib qoldi", -deb yozadi jurnalist Faxriddin Nizom o'zining "Yangilanish an'anasi" nomli asarida. Darhaqiqat, harbiy poligonlar mafkuraviy poligonlarga o'z o'rnini bo'shatib berayotgan ushbu davrda dunyo mamlakatlari umuminsoniy va milliy manfaatlar sintezlashgan strategiya asosida xalqaro maydonlarda harakatlana boshladi. Ogohlik, axborotga egalik qilish yoki uni boshqarish har qanday harbiy tadbirga qaraganda muhimroq ahamiyat kasb etadigan bo'lib qoldi. Shu bois axborot siyosati juda muhim hisoblanadi. Chunki hozirda mafkuraviy xurujlar turli rasmiy va norasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda. Yosh avlodni mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos.

Badiiy adabiyot insonning shaxs sifatida shakllanishida juda muhim o'rin tutadigan manba hisoblanadi. Inson hayotini ko'z oldimizga keltiraylik.

Tug‘ilgandayoq inson badiiy adabiyotning ichida bo‘ladi: go‘dakligida ona allasini tinglaydi, vafot etganida esa unga atab marsiyalar aytiladi. Xullas, insoniyatning har qanday taraqqiyotini badiiy adabiyotsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ham, maktablarda ham, o‘rta-maxsus ta‘limda ham badiiy adabiyot o‘rgatiladi. Dasturda berilgan badiiy asarlarning ko‘pchiligi insonning o‘zini anglashiga qaratilgan va shaxs sifatida shakllanayotgan yosh avlod uchun bu juda muhim omil hisoblanadi. 10-sinf adabiyot darsligida Alfons Dodingning “So‘nggi saboq” hikoyasi keltirilgan, shu asarni hayajonsiz, titroqlarsiz o‘qib bo‘lmaydi. Ayniqsa, o‘n olti-o‘n yetti yoshdagi o‘smir yigit-qizlar bu asarni o‘qiganlarida ularda Vatan, ona til, mustaqillik kabi tushunchalarni qadrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Farnasiya va Germaniya orasida har doim urushlarga sabab bo‘lgan Elzas viloyatida ba‘zan fransuz tili, ba‘zan nemis tili o‘qitiladi. Buning sababi Elzas viloyati ba‘zan Fransiya, ba‘zan Germaniya tomonidan egallanadi. Bu holat insonlarning yashash tarziga emas, balki, maktabdagi darslarga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Hikoyada fransuz tilini o‘rganishda qiynaladigan bir o‘quvchi yigitning his-tuyg‘ulari fonida bosqinchilikning, siyosiy urushlarning yosh avlodga naqadar salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ifodasini topgan. Hikoyada Mosye Amel tilidan aytilgan quyidagi so‘zlar, ogohlantirishlar har bir yoshni sergak bo‘lishga, vaqtdan unumli foydalanishga undaydi: “Biz elzasliklar o‘qishni doimo ortga suramiz — fojeamiz ham ana shunda. Sizlar o‘zingizni fransuz deb bilasiz, vaholanki, o‘z ona tillaringda to‘g‘ri gapirishni ham, yozishni ham eplay olmaysiz. Bunda sening aybing boshqalarnikidan kam emas, Frans, o‘g‘lim. Biz o‘zimizdan o‘pkalashimiz kerak”.

(<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/alfons-dode-1840-1897-fransiya/alfons-dode-so-nggi-saboq-hikoya>)

Shu qisqagina hikoyada millatlar uchun, bashariyat uchun umumiy g‘oyaga mos bo‘lgan fikr ilgari surilganini ko‘ramiz. Har qanday holatda zo‘ravonlik va jaholatga qarshi tura oladigan qahramonlar tasvirlangan bunday asarlarni o‘qigan millatning bolalari mafkuraviy tahdidlarga uchramaydi, uchrasa-da, ularga qarshi immunitetni o‘zida hosil qila oladi. O‘qituvchi ota-onalarning farzandlari taqdiriga e‘tiborsizligi, bolalarning berilgan vaqtni, yoshlikni qadrlamasdan, o‘qish o‘rniga

boshqa yumushlar bilan mashg'ul bo'lishi va o'zining mas'uliyatsizligi uchun o'zini qattiq koyiydi. O'qutuvchi bularni aytar ekan, bu haqiqiy fojealardan biri ekanligini aytadi. Haqiqatan, o'z ona tilini bilmaslik, o'qib-o'rganmaslik va eng muhimi, o'rgana olmaslik eng katta fojealardan biridir. Ona tilini ona allasi bilan har bir insonning qalbiga jo bo'ladi, tomirlarida kezadi, uning o'z tiliga, hayotiga, umrining ajralmas qismiga aylanadi. Shu sababdan ham ushbu holatni Mosye Amel yorug'likka chiqa olish (mustamlaka zulmidan xalos bo'lish) uchun tilni saqlab qolish kerakligi borasidagi bir qancha misollar bilan o'quvchilarga tushuntiradi, chunki ular—yurtning yoshlari, kelajakka poydevor qo'yuvchilargina buni uddalashlari mumkin. Asarda e'tiborni qaratishga arziydigan yana bir katta jihat bor: u ham bo'lsa, so'nggi darsga qariya Xauzer, sobiq mer, pochtachi va boshqa qishloq kishilarining kelganligi, eski Alifbeni tutib o'tirganliklaridir. Ular o'z ona tillarida olib boriladigan so'nggi darsga kelishadi, hech bo'lmasa mana shu saboqdan nimanidir o'rganishga umid bog'lab, chuqur g'amga cho'kishadi. Bu o'z navbatida berilgan umrning, vaqtning, erkning va jamiki ne'matlarning o'z vaqtida qadriga yetish kerakligini anglatadi.

Bu kabi asarlarni o'qigan har bir yosh avlod qalbida milliy tilga bo'lgan muhabbat, ozodlikning ulug' ne'matligini his etish va milliy g'urur yanada rivojlanadi. Bugungi tahlikali axborot asrida yani shu masalalar millatning o'zligini saqlab qolishda juda muhim hisoblanadi. Millatni yuksaltiradigan kuch bu albatta uning tili va adabiyotidir. Agar biz bitmas xazina hisoblangan tilimiz va adabiyotimizning targ'iboti bilan shug'ullanar ekanmiz, ana shunda farzandlarimizni turli tahdidlardan himoya qila olamiz.

Shu o'rinda yana bir og'riqli masala o'rta chiqadi: bugungi kunda ijtimoiy tarmoqda qiziqarli mashg'ulotlar, jozibali kontentlar shu qadar ko'pki, natijada o'quvchilar badiiy adabiyotdan uzoqlashadilar, kitob o'qish, mutolaa madaniyati nisabatan keyingi o'rinlarga suriladi. Bu holatda nima qilmoq kerak? Yana katta mas'uliyat ota-ona va o'qituvchi-pedagoglarning zimmasiga tushadi. Agar shaxsiy ibrat bo'lmasa, yosh avlod bizning ortimizdan ergashmaydi. Bola tabiatan taqlidchi, ayniqsa kattalarga ergashuvchi bo'lgani uchun undan talab qilganlarimizni, avvalo, o'zimiz bajargan bo'lishimiz lozim. Ota-onaning,

o'qituvchining o'zi kitobxon bo'lmasa, badiiy adabiyotni bilmasa, farzandiga yoki o'quvchisiga shaxsiy ibrat orqali ta'sir ko'rsata olmaydi. Bugungi kunda oilalarda asosiy qadriyat texnika emas (texnikaning har qanday turi: avtomashina, smartfon, kompyuter, televizor bo'lishi mumkin), balki ma'rifat bo'lsagina, o'sha oilada haqiqiy barkamol shaxslar tarbiyalanadi.

Shu o'rinda yana bir taklifni keltirib o'tishimiz mumkin. Oila va ta'lim muassasi birlashib, hamkorlik asosida bolaning ma'naviyatini shakllantirishga harakat qilsagina, biz yaxshi natijalarga erishamiz. Ma'naviyatni shakllantirishning eng birinchi talabi bu yosh avlodni kitobxon qilish, badiiy adabiyot bilan oshno bo'lishiga erishishdir.

Bugungi kunda insonni chalg'ituvchi vositalar shu qadar ko'pki, ba'zida mutolaa jarayoni eng oxirgi o'ringa surib qo'yilishi mumkin. Ammo biz muayyan aniqlik va reja asosida ish olib borsak, hammasini uddalashimiz mumkin. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, bir mashg'ulotni yigirma bir kun davomida uzluksiz takrorlash orqali shu mashg'ulotning doimiyligiga erishish mumkindir. Demak, dastlabki yigirma bir kunda majburlab kitob o'qishni tashkillashtirish lozim. Kitoblarni esa tanlash juda muhimdir. Bugungi shiddati tez zamonda nafaqat ijtimoiy tarmoqlar, balki nashr etilayotgan kitoblarda ham turli xil g'oyalarni ilgari suruvchi asarlar chop etilmoqda. Shu bois axborotni saralashni badiiy kitoblarga nisbatan ham amalga oshirish lozim bo'ladi.

Xulosa shuki, yosh avlodni badiiy adabiyot orqali tarbiyalashda adabiyot darsliklarining o'rni beqiyos.

1. Muhammadsiddiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik; Toshkent-2017: 18-bet.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 4.J. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. –B.370.
3. Yaxshilikov J.Y., Muhammedov N.E, “Milliy g‘oya va mafkura”, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti. 2015.B.140.
4. Amirov D.M., Atajonov A.Y. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan ikkinchi nashr. O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2010.-B.178.
5. Muitov D. Geosiyosat va jurnalistika T.:Toshkent “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2014. –B.97.
6. Xavfsizlikning metodologik asoslari.R.Samarov.T.:Akademiya nashriyoti. 2010.B.221-222.
7. Qosimova.N.S. Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalistika. O‘quv qo‘llanma. – T.,___.2019 yil. 157-bet
8. Muratova.N.F., Alimova.G.B. Fake News: Mediada dezinformatsiya. Toshkent. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi“-2020-yil.